

**TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA KREATIV PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Achilov Soxibjon To'liq o'g'li
JDPU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi (texnologik ta'lim)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.
e-mail: ochilovsohibjon12@gmail.com

Annotasiya

Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitishda kreativ pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari va amaliy afzalliklari tahlil qilingan. STEAM orqali o'qitish, loyiha asosida o'qitish, dizayn fikrlash, muammoli ta'lim asosida o'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Kreativ pedagogik texnologiya, kreativlik, kreativ yondashuv, STEAM, dizayn fikrlash, texnologiya fani o'qituvchilari.

Аннотация

В данной статье проанализированы теоретические основы, методические возможности и практические преимущества использования креативных педагогических технологий в обучении предмету «Технология». Показаны эффективные пути формирования креативных компетенций у учащихся на основе STEAM-обучения, проектного обучения, дизайн-мышления и проблемного обучения.

Ключевые слова: креативные педагогические технологии, креативность, креативный подход, STEAM, дизайн-мышление, учителя технологии.

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations, methodological possibilities, and practical advantages of using creative pedagogical technologies in teaching the subject of Technology. Effective ways of developing students' creative competencies through STEAM education, project-based learning, design thinking, and problem-based learning are presented.

Keywords: creative pedagogical technologies, creativity, creative approach, STEAM, design thinking, technology teachers.

Kirish

Bugungi zamon ta'limida o'quvchilarning yangicha fikrlashi, texnik yangiliklarga moslashishi va ijodiy yondasha olishi juda muhimdir. Texnologiya fani ana shu kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Bu fanni

samarali o'qitish esa kreativ pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Kreativ texnologiyalar o'quvchini faol, izlanishga qodir, noodatiy yechim topaoladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Globallashuv davrida yashar ekanmiz biz ham bu davrning bir qismiga aylanishimiz zarur. O'zbekiston ham yangilanayotgan davrda, jamiyatni dunyoqarashini tubdan o'zgartirish va zamonga moslashuvini yangilash uchun zamonaviy fikrlaydigan, g'oyalarga ega, o'z fikrlarini amalga tadbiiq etaoladigan kreativ (yaratuvchi) yoshlar kerak. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimida kreativ pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerakligini ko'rsatadi. Chunki ta'lim tizimi o'quvchilarning dunyoqarashini hosil qiluvchi va rivojlantiruvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Adabiyotlarning tahlili va metodologiyasi

Rivojlanishning birinchi bo'g'ini ta'lim tizimidir. Ta'lim tizimida yangilik kiritaolish esa, o'qituvchining mahoratiga ham bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarda kreativlikni hosil qilishi kerak. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, "yaratish" degan ma'noni anglatadi, ya'ni o'quvchilarning yangilik yaratishlari, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyatlari tushuniladi. [3] Originallik, amaliylik, standart qolipdagi fikrlardan qochishlik va erkinlik kreativlikning asosiy sifatlaridir. Kreativlik tushunchasi J. Gilford, E. Torrens, A. Maslou kabi olimlar tadqiqotlarida keng izohlangan. Ular kreativlikni yangicha fikrlash, g'oya yaratish, faol izlanish sifatida baholagan.

Texnologiya faniga oid adabiyotlarda esa STEAM, loyiha asosida o'qitish, dizayn fikrlash, muammoli ta'lim, gamifikatsiya kabi metodlarning o'quvchilar faoliyatiga ijobiy ta'siri quyidagicha ekanligi bayon etilgan:

1. O'quvchilarning ijodiy va texnik tafakkuri rivojlanadi.
2. Amaliy ko'nikmalar mustahkamlanadi.
3. Fanlarga qiziqish ortadi.
4. Jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
5. Mustaqil izlanish ko'nikmalari paydo bo'ladi.
6. O'ziga ishonch ortadi.

Kreativlik har qanday fanga, xoh matematika, xoh texnologiya, xoh iqtisod, xoh fizika bo'lsin qo'llanilish mumkin bo'lgan pedagogik yondashuvdir. Kreativlikning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonini doimiy ravishda o'zgartirib boradi.

Kreativ pedagogik texnologiya - bu o'quvchining ijodiy, mustaqil, noan'anaviy (standart qolipdagi fikrlardan chiqqan holda) fikr yuritishini ochib tashlash, amaliy yechim ishlab chiqarishni rag'batlarga ta'minlash usullari majmuidir. Ular texnologiya fanining amaliy faoliyat ruhiga juda mos tushadi.

STEAM texnologiyasi yaqqol kreativ pedagogik texnologiyaga asoslanadi. Chunki bu STEAM so'zi:

S — science (fan),

T — technology (texnologiya),
E — engineering (muhandislik),
A — art (san'at),
M — math (matematika)

kabi bo'limlardan tashkil topgan. Bu texnologiya bo'yicha o'qigan o'quvchi yoshlar fanlarni chuqur o'zlashtirish bilan bir qatorda unga yangicha ko'rinish berishni, yakka hollarda amaliy ishlar bajarishni, hisob-kitob ishlarini to'g'ri amalga oshirishni, muhandislik sohasini chuqur o'rganishni va amaliy ishlarini bezashni, pardoqlashni umumiy qilib aytganda kreativlikni o'rganadi.

Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinatsiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinatsiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.[1] Bu esa insonlarning ma'lum darajada ijodiy yuksalishligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bilamizki maktab darsliklari ichida texnologiya fani amaliy-ijodkorlik fanlari sirasiga kiradi. Texnologiya fani o'qituvchilari o'quvchilarga berilgan amaliy ishlarni bajarish bilan birgalikda unga yangicha ko'rinish berishni o'rgatishi kerak. Buning uchun texnologiya fani o'qituvchilari quyidagilarni o'quvchilarga o'rgatishi zarur:

- yasalayotgan ijodiy ishni qayerda ishlatishni to'liq anglab yetishni,
- yasalayotgan buyumning hozirgi vaqtdagi ko'rinishlarini o'rganishni,
- hozirgi vaqtdagi ko'rinishlaridagi muammo va kamchiliklarni o'rganishni,
- muammo va kamchiliklarga kreativ yechimlar qidirishni,
- kreativ ishlanmadan hosil bo'lgan g'oya bilan yangilik yaratishni.

Bu orqali bajarilgan amaliy ijodkorlik ishlari natijasida, o'quvchi yoshlar dunyo talablariga mos keluvchi har qanday turdagi yangilikni qilaoladigan, hayotimizga ijodkorona yondashgan holda fikrlay boshlaydi.

O'quv jarayoniga kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etishning zarur shartlaridan biri bu kreativ muhitni yaratish, maktablarda o'qitish vositalarini modernizatsiya qilishdir, chunki eskirgan pedagogik vositalar yordamida kreativ shaxsni shakllantirish mumkin emas. [2]

O'qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli ravishda yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlik bilan ishlamaslikga yordam beradi.

Texnologiya fani o'qituvchilari darslar mobaynida eski "qoliplar" (an'anaviy o'qitish tizimi) dan chiqib yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari kerak.

“Qoliplar” ishimizni osonlashtiradi, ammo rivojlantirmaydi, shuning uchun ham o‘qituvchilar darslarni loyihalash (rejalash) orqali o‘tkazishligi tavsiya etiladi. O‘qituvchi kreativ fikrlay olsagina o‘quvchilarning bilim salohiyatini yuksaltirish bilan bir qatorda yaratuvchilikka ham o‘rgata oladi. Darslar mobaynida turli ko‘rinishdagi qiziqarli bo‘lgan metodlardan foydalanish, talabga javob beruvchi dars o‘tishning xorijiy davlatlar programmalaridan foydalanish, har bir o‘quvchining yaratuvchanlik qobiliyatlarini tekshirib borish pedagog xodimning asosiy vazifalaridandir.

Muhokama va natijalar

Texnologiya fani amaliy mazmunga ega bo‘lgani uchun kreativ yondashuvlar ayni muddaodir. Dizayn fikrlash, STEAM integratsiyasi, loyiha metodi va gamifikatsiya o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Texnologiya fanlarida pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish, o‘quvchi yoshlarni kreativ izlanuvchan qilib tarbiyalash, respublikamizning rivojlanishiga sezilarli ta’sir etadi.

Kreativ pedagogik texnologiya ham harakat ketma-ketligi, ham o‘qituvchi va o‘quvchining yaratuvchanligi faoliyati jarayonidir. Kreativ faoliyat kontseptsiyasida individual qobiliyat va qobiliyatlarni ijodkorlikka tayyorlik darajasini, o‘z-o‘zini hurmat qilishni, ijtimoiy va ma’naviy madaniyatda faol o‘zini anglashni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadlarni tanlashni, materialni tanlashni, texnologiyani amalga oshirish jarayonida o‘zaro ta’sir usullarini belgilaydi. Kreativ pedagogik texnologiya turli xil xususiyatlarga ega bo‘ladi va quyidagicha ta’rif berish mumkin: kreativ shaxsning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini tashkil etish aniq va ravshan, tashhis qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlaydiganligi; jamiyat taraqqiyotining ob’ektiv qonuniyatlariga va mazmuniy yaxlitlikka bo‘ysundirilgan tuzilishga ega bo‘lgan algoritmdir. Yakuniy natijani oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini tarkib toptirish, o‘z usullari, axborot materialini tuzish usullari, bilish faoliyatini tashkil etish shakllari va nazorat shakllarining mavjudligi. [2]

Darslarning har doim ijobiy natija berishi yoki bermasligi o‘qituvchiga bog‘liqligi bo‘yicha qolaveradi, bu esa bilimli yoshlarning yetishib chiqishligiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Xulosa

O‘qituvchi kreativ fikrlay olgan taqdirdagina o‘quvchilarning nafaqat bilim salohiyatini yuksaltirish, balki ularni mustaqil fikrlashga, yangilik yaratishga va muammolarga noodatiy yechim topishga yo‘naltira oladi. Kreativ o‘qituvchi dars jarayonida an’anaviy yondashuv bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchini faol subyekt sifatida jalb etuvchi, ularning qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga oluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanadi. Natijada o‘quvchilar bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni izlanish, tajriba va hamkorlik asosida o‘zlashtiruvchi faol ishtirokchiga aylanadi. O‘qituvchilar tomonidan yangicha ko‘rinishdagi pedagogik texnologiyalar — loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim,

STEAM yondashuvi, dizayn fikrlash kabi metodlar asosida dars jarayonlari tashkil etilganda, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasi va darslarga qiziqishi sezilarli darajada ortadi. Bunday darslar o'quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki fikr bildirishga, o'z g'oyalarini asoslashga, jamoada ishlashga va ijodiy qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Ayniqsa, texnologiya fanida amaliy faoliyatning ustuvorligi kreativ pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O'quv jarayoniga kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etishning muhim shartlaridan biri — ta'lim muhitini kreativ ruhda tashkil etishdir. Kreativ muhit o'quvchilarga erkin fikrlash, xatolardan qo'rqmasdan tajriba o'tkazish, o'z fikrini ochiq ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, maktablarda o'qitish vositalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli resurslar va interfaol didaktik materiallardan foydalanish zarur hisoblanadi. Chunki eskirgan, faqat reproduktiv faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik vositalar yordamida kreativ fikrlovchi va ijodkor shaxsni shakllantirish imkoniyati cheklangan. Shunday ekan, ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirish pedagogik yondashuvlar, muhit va vositalarning uyg'unligi asosida amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ermolaeva-Tomina L. B. The study of factors determining individual differences in the manifestation of creative activity // Psychology of creativity. M., 1990. pp.117-130.
2. Z. Boltaeva. // KREATIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR –TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHNING ASOSI SIFATIDA // International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India 24th December 2023.
3. Oripova M. // KREATIVLIK TUSHUNCHASI, MAZMUN MOHIYATI VA UNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences // VOLUME 2| ISSUE 10/2 // October 2022.
4. Qodirova G. // Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion va kreativ metodlardan ko'chirish // Xalq ta'limi // 2020.
5. Muhammadiyev. E.T // Loyihaviy yondashuv asosida talabalarning kreativlik kompetentligini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar // INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY // 2025-yil.
6. Xomidova. R, Xudayqulov. Sh. S (2024). // TEXNOLOGIYA FANINI STEAM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH USULLARI. //Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(12), 633–635.
7. Nizomov. Sh, Burxonov. R, Yo'ldoshev. M // TEXNOLOGIYA FANIGA STEAM TA'LIMIY YONDASHUVNING AHAMIYATI // Multidisciplinary Scientific Journal // 2023-yil.